

**"USTOZ SHOGIRT "AN'ANASINI INDIVIDUAL TA'LIM TAMOYILI ASOSIDA
O'RGATISH METODIKASI (MUSIQA FANI ASOSIDA)**

Qayumov J. S.

*Musiqa ta'lifi kafedrasi katta o'qituvchisi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

Annotatsiya: Maqolada ta'lif sifatini oshirishda hamkorlik pedagogikasi va uning o'ziga xos xususiyatlari, yo'nalishlari yoritilgan. Shu bilan birga ustoz-shogird an'anasing kelib chiqishi, rivojlanishi, musiqiy ta'lif oluvchining kamolotidagi o'rni haqida so'z yuritilgan. Mazkur maqolada ta'lif tizimining sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan, bugungi kunda asosiy mazmun beruvchi yana bir tizim "Ustoz-shogird" tizimi hamda faoliyati xususida fikr yuritiladi. Zero, "Ustoz-shogird" munosabatlarida mustahkam pedagogik psixologik ko'rsatmalar shakllanib borishi tabiiydir.

Kalit so'zlar: musiqa, san'at, ta'lif, ta'lif oluvchilar, hamkorlik pedagogikasi, ustoz-shogird an'anasi, pedagogik munosabat, kasb-hunar, tinglovchi, yaratuvchi, ijrochi, ustoz odobi.

Xalqimiz buyuk tarixi, ulkan merosi va uzoq o'tmishi bilan jahon zarvaraqaasida ajralib turadi. Tarixga nazar solsak, faxr ila tilga oluvchi ajdodlarimiz va ular qoldirgan merosdan g'ururlanamiz. Asrlar osha sayqal topgan mumtoz musiqa san'atimiz esa, uzoq o'tmishimiz, yuksak madaniyatimizning, bugungi kundagi jonli namunasidir. Shuni ta'kidlash joizki, mumtoz musiqa san'atimiz sayqal topib bizgacha yetib kelishida, ustoz san'atkorlarning (bastakor, xofiz, sozanda) ahamiyati katta. Zero butun dunyo tan olgan g'arb Motsarti, Beethovenlari kabi siymolar, sharq musiqa san'atida ham talaygina. Biz bunday siymolarni uzoq o'tmishdan qidirmasdan, birgina Yunus Rajabiy nomi bilan qiyoslasak.

Yunus Rajabiy ulkan musiqa merosimiz sarhadini kengaytirgan ustoz san'atkordir. Yunus otaning nomi hamisha faxr ila tilga olinadi. Zero, mumtoz musiqa merosimizni asrab, sayqal topishida Yunus Rajabiyning fidokorona xizmatlari katta. Shu bois ham yurtimizda Rajabiy nomini eshitmagan, bilmagan insonni topish mushkul. Nafaqat, O'zbekistonda, balki butun Osiyo va Yevropada ham Yunus Rajabiyning nomi ma'lum va mashhur.

Bastakor sifatida o'zidan o'chmas iz qoldirgan, ustoz sifatida ko'plab shogirdlar yetishtirgan Yunus Rajabiy sozanda va xonandalik san'atida ham mashhurlikka erishgan. Shuningdek mumtoz musiqa merosimiz namunalarini nafaqat yodida saqlagan, ularni notaga ham olib kelajak avlod uchun meros qoldirgan. Xususan 1500 dan ortiq xalq kuy va ashulalari, yalla, lapar, terma va dostonlar, o'zbek maqomlari "Shashmaqom", "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari"ning nota na'munalarini "O'zbek xalq musiqasi" kitoblarida nashr ettirgan

Bu yo'lda amalga oshirilgan asosiy vazifalardan biri mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishga asos bo'ladigan yangi ta'limgiz tizimining tashkil etilishidir. 1997 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida qabul qilingan «Ta'limgiz to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi uni amalga oshirish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq, uzlucksiz ta'limgiz tizimining barcha turlarida shaxsning har tomonlama shakllanishi, bilim va ko'nikmalarining chuqur rivojlantirib borilishi, o'zlarini tanlagan kasb-hunar bo'yicha ta'limgiz olishlari ko'rsatilgan.

O'z kasbining mohir ustalari bo'lgan hofiz, sozanda va bastakorlar ijodi tufayli maqom dildagi niyat, amalga oshishi mumkin bo'lgan mavhum musiqiy g'oyadan kuy yoki ashulalarga aylanadi. Barhayot musiqiy an'analar har kanday faoliyat kabi uchta asosiy tamoyilga tayanadi: tinglovchi, ijrochi va yaratuvchi. Ana shu uchta tamoyil negizida musiqa san'atining mushtarak jarayoni yuzaga keladi.

Ozaki an'analar sharoitida ijro bilan ijod faoliyatining chegaralarini belgilash qiyin. Chunki haqiqiy ijroning o'ziyok, ijod demakdir. Cholg'uchi yoki hofiz o'z hunarining siru asrorlarini o'zlashtirishda ma'lum bir darajaga erishgandagina Ustoz degan nomu nishonga musharraf bo'ladi. Aynan shu chinakam ustoz sozandalar maqomni yuksak san'at darajasiga kiritishga qodirlar. Ularning ijodiy shuxrati porloq yulduzlar kabi musiqa madaniyatini nurafshon etadi. Ana shunday yorqin yulduzlarning shu'lalari klassik musiqa merosimiz turli uslublarining cheksiz qirralarini yoritib kelmoqda.

Sharq mafkurasida qadim zamonlardanoq musiqaning ijro va ijod jihatlari bir butun uzviy holda ko'rilib. Sozanda mahorat yo'lida ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritganda erkinlik kashf etib, o'z ijodiy qiyofasini belgilay boshlaydi. Ana shunday yuksak cho'qqiga yetgandagina, ijod qirralarining qay biri o'ziniki va qay biri o'zganiki ekanini ajratish juda qiyin. Shuning uchun ustoz sozandaning o'zidan qo'shgani asrlar osha kelayotgan barqaror an'analarini inkor etmaydi. Aksincha, uning ijodiy hissasi tabiiy ravishda umumi yerosga qo'shilib ketadi.

Buyuk faylasuf va musiqiyshunos olim Abu Nosir Forobiy musiqiy iqtidorni uch bosqichga ajratadi: Fapuza (tabiiy kuch, instinkt), his va aql. Rariza - insondagi sozga bo'lgan moyillik, uning kuy eshitish, chalish yoki aytish qobiliyati. Xis etish (intuitsiya) - kuyni ruhiy holat sifatida o'zlashtirish. Masalan, sozanda kuy chalayotganda qaysi parda, qaysi ohang ekanligini o'ylab o'tirmaydi. Kuy sozanda qalbida pishib yetiladi va undan keyin ma'lum tovushlar sifatida ijro etiladi. Aql (intellekt) darajasi shundan iboratki, unga erishgan sozanda kim uchun qanday kuy chalayotganligini, uning tuzilishini, g'oyasini, shakl va mazmunini idroklashga qodir bo'ladi. Ana shu yuksak kamolot bosqichida sozanda ongli ravishda tushunib yetib kuy yaratishga erishadi. Shuning uchun ham Forobiy kuyni idroklash va yaratish iktidorini musiqa ilmining eng mukammal bosqichi deb qaragan.

Muomalada esa sozandalik hunarining ana shunday yuqori darajasi “ustoz” degan faxriy daraja bilan belgilanadi. Mazkur uyg‘un tushunchaning shartli ravishda ikki: manaviy xamda amaliy jihalarini kuzatish mumkin. Ma’naviy tarafdan ustoz har bir hunarning e’tiqod ramzi, uni muqaddas tutib inson kasb - koridan baraka topib, yuqori martabaga erishmog‘i. Xalqimizda “Ustoz otangdek ulug” degan naql bor.

Amaliy nuqtai nazardan ustoz - muayyan ixtisos sohasining siru asrorlarini puxga egallagan va hunar o’zlashtirishni oliy darajaga yetkazgan komil inson. Masalan, musiqada ustoz - kuy chalib, o’zidan bir narsalar ko’shib, mahoratini nafis san’at maqomiga ko’targan sozanda. Ustoz tomonidan u muqaddas qobiliyat sifatida avaylab-asraladi. O’zlashtirilgan san’at sirlarini faqat aziz farzandlar va eng sadoqatli shogirdlar bilan baham ko’rish mumkin. Kasb-hunarning siru asrorlarini begona qilish yoki nomaqbul shogirdlarga ravo kurish gunoh hisoblangan. Xunarni oyoq osti qilish esa piriavohlar g‘azabini uyg‘otadi degan e’tiqod bo’lgan. Shuning uchun ham tarixiy tajribadan ma’lum bo’ladiki, ustoz-shogird silsilasida oilaviy an’analar hal kiluvchi ahamiyat kasb etadi. Odatda, sozandalar oilasidan yetishib chiqqan, tashqaridan kelgan shogirdlar ishonchni oklab, unga sadoqat bildirgandagina ustozlar ularga mehr qo’ya boshlaydi. Ana shu tariqa maqom ijrochilarining asrlar davomida shakllangan maktab va uslublari zaminida yangi oqimlar paydo bo’ladi. O’z navbatida bu yangiliklar ham silsilaga aylanib maqom an’analarida vorisiylik rishtalari uzlusiz davom etib boraveradi.

Hozirgi kunda oldimizda nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiladigan chuqur bilimga ega, yuksak tarbiya ko’rgan, barkamol avlodni ya’ni, komil insonni voyaga yetkazish vazifasi turibdi. Bu vazifani amalga oshirishda ustozlarning o’rni kattadir. Bugungi kunda ustozlar ajdodlarimizning ta’lim-tarbiya to‘g‘risida bizga meros bo‘lib qolgan yozma manbalaridan ustoz va shogirlik talablari belgilangan ibratli qoidalarni chuqur o’rganish, tadqiq etish va ulardagi ilg‘or tajribalarni hozirgi zamon pedagogik jarayonlarga tadbiq etgan holda ta’lim-tarbiya ishlarida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Allomalarimiz ustoz odobining sakkiz shartini sanab o’tganlar. Birinchidan, o’quvchilarga nisbatan shafqatli bo‘lishi va ularga o’z bolalari kabi muomalada bo‘lishi; ikkinchidan, ustoz ilm o’rgatish va tarbiya berish uchun haq talab etmaslik; uchinchidan, o’quvchiga qilinishi lozim bo’lgan nasihatlardan hech birini qoldirmasligi; to’rtinchidan, ta’lim san’atining nozik jihatlaridan biri, muallim o’quvchining yomon axloqini oshkora emas, balki imkonimiz boricha o’ziga ko’rsatish yo‘li bilan tuzatishi; beshinchidan, ilmlardan ba’zilarini o’rganayotgan o’quvchiga boshqa ilmlarni yomon ko’rsatmasligi; oltinchidan, o’quvchiga ilmni fahm-farosati va qobiliyatining ko’tarishiga qarab o’rgatishi; yettinchidan, zehni past o’quvchiga o’ziga xos bo’lgan ilmlarni o’rgatishi va sakkizinchidan, ustoz o’z ilmiga amal qilishi lozimligiga urg‘u berilgan.

Bugungi kunda ustoz qiyofasida ma’naviy yetuk ustozni ko‘rish lozim deb hisoblaymiz. Ma’naviy yetuk ustoz kim bo‘lishi kerak? - degan savolga javob izlasak, bizningcha, u - ko‘p mutoalaa qilgan, o‘rgangan, bilimli, malakali, har qanday ijodkordan ham ijodkorroq, o‘z-o‘zini ma’nan-ruhan tarbiyalangan, dono maslahatchi, hamdard, ruhiy madadkor bo‘lib peshvoz chiquvchi hamda o‘z bilimi va barcha axloqiy fazilatlarini shogirdining ma’naviy kamoloti uchun sarflab, jon kuydiradigan, jismonan yetuk va iymonli shaxsdir. Shu bilan birga, qo‘lidan kelguncha yaxshi amallar qiladigan, noloyiq ish va noto‘g‘ri so‘zdan tiyilgan, yomonlikdan uzoq yuradigan, undan xazar qiladigan, shogirdlariga ham o‘zidagi fazilatlarni yuqtiradigan ma’naviy insondir.

Ma’naviy yetuk ustoz xushxulqligi, xushfe’lligi, o‘z-o‘zini ma’nan, ruhan, qolaversa, jismonan tarbiyalanganligi bilan ajralib turadi. Ma’naviy yetuk ustozning eng muhim shartlaridan biri, ta’sirchan va zalvorli nutq sohibi bo‘lib, shogird tuyg‘ularini, o‘y-xayollarini jilovlay olishi; ikkiinchidan, o‘quvchining ma’naviy olamini boyitishga, xulqi va odobini takomillashtirishga xissa qo‘sish; uchinchidan, o‘z ilmi bilan har qanday shogirdda qiziqish uyg‘ota olishdir.

Ma’naviy yetuk ustoz va shogird o‘rtasidagi muqaddas masofa yaqinlashsa, oradagi qadrdon rishtalar ham uziladi. Ya’ni, birinchidan, ustoz o‘z og‘irligini shogird gardaniga tashlab qo‘yganda; ikkinchidan, o‘z o‘quvchisiga sir boy berib qo‘yganda; uchinchidan, o‘z so‘zining ustidan chiqmaganda o‘z hurmatini yo‘qotadi.

Ba’zi ustozlarimiz "Qancha tarbiya-yu, tanbeh berganimiz bilan ayrim yoshlarni odam qilib bo‘lmaydi" deyishadi. Albatta, bu noto‘g‘ri fikrdir. Chunki, tarbiya tabiatga ta’sir ko‘rsatmasligi mumkindir, lekin axloqni o‘zgartiradi, ya’ni yaxshi fazilatlarni kamol toptiradi. Bu albatta ma’naviy yetuk ustozning qo‘lida. Bordi-yu, uning bo‘lgani shu deb o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, yoshlarimiz turli oqimlar va yo‘llarga kirib qolishi hech gap emas. Bunday hollarda ma’naviy yetuk ustoz yoshlarga kuchli ta’lim va tarbiya berish bilan yosh avlodga oqu-qorani va yaxshi-yomonni o‘rgatish, milliy mafkura asosida e’tiqodni shakllantirish, haq-huquqlari, burch va mas’uliyatini chuqr anglatish zarur bo‘ladi.

Ma’naviy yetuk ustozning faoliyatini quyidagi mezonlarga asoslagan holda baholash mumkin:

- o‘quvchilarining sog‘lom ma’naviy muhiti, kasbiy kamoloti bo‘yicha qo‘lga kiritgan yutuqlari;
- o‘quvchilarining maishiy hayotdan xabardorligi va ularning mafkuraviy tayyorgarligi uchun mas’ulligi;
- o‘quvchilarining kasbiy ko‘nikmasi shakllanishi uchun mas’ulligi;
- o‘quvchilarining o‘quv va mehnat intizomi, ta’lim muassasasi ichki tartibqoidalariga rioya qilishi;
- o‘quvchilarining fanlarni o‘zlashtirish darajasi;
- o‘quvchilarining ilmiy-ijodiy ishlarida faol qatnashishi, turli ko‘rik tanlovlardagi ishtiroki va qo‘lga kiritgan yutuqlari va shu kabilar.

Demak, ma’naviy yetuk ustozlarning shogirdlari mustaqil fikrlaydigan va o‘z-o‘zini anglagan, o‘z haq-huquqini taniydigan, o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo‘ladigan voqealarga munosabat bildira oladigan, o‘z xatolaridan xulosa chiqara oladigan, shaxsiy manfaatidan mamlakat va xalq manfaatlarini ustun qo‘yadigan, Vatanini jonidan-da ortiq ko‘radigan shaxslar bo‘lib ulg‘ayadi. Bunga faqat va yana faqat tarbiya olib boradi.

Ustoz shogirdlariga strategik rejalar tuzish va maqsad sari intilishi uchun har qanday metodik yordam ko‘rsata oladi. Demak, shogirdlariga ustoz istiqbol yo‘lida albatta raqobat bo‘lishini ham tushuntirib boradi.

Ustoz shogirdi hayotda va faoliyatda raqobatga kirishishi va o‘zini ro‘yobga chiqarishi uchun eng muhim narsa bu - boshqa odamlar bilan samarali o‘zaro ta’sirga kira olish qobiliyati ekanligini amaliyotda ko‘rsata olishi lozim. Shogird har qanday raqobat holatida to‘g‘ri yo‘l topa olish ko‘nikmalarini va natijani to‘g‘ri aniqlay olish har bir kishidan rang-barang shaxsiy xususiyatlar va qobiliyatlarni talab qilishini bilib boradi.

Shogird natijada o‘zining mustaqil harakat qilishida katta imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Demak, raqobat usullari shogirdni har tomonlama tayyor kadr bo‘lib yetilishiga sabab bo‘ladi. Ustoz-shogird munosabatlarida mustaqkam pedagogik-psixologik ko‘rsatmalar shakllanib borishi ham mumkin.

Ular quyidagicha ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

- o‘z xatti-harakatlari rejalarini shakllantirish;
- o‘z rivojlanishini kuzatib borish;
- o‘z rivojlanishini tushunish va foydalanilmagan imkoniyatlarni baholash;
- mentorlikning yangi malakalarini egallash;
- mentorlikning yangi usullari va metodlarini amaliy egallash;
- samarali rejalashtirish ko‘nikmalari;
- suhbatdoshini tinglay olish malakasi
- maxsus qoidalarni bilish va boshqa odamlarni tushunish.

Abu Nasr Farobi ustoz o‘qituvchiga shunday talab qo‘yadi: "Ustoz shogirddariga katta zulm ham xaddan tashqari ko‘ngilchanglik ham qilmaslik lozim." Chunki ortiqcha zulum shogirdda ustozga nisbatan nafrat uyg‘otadi-yu, ustoz juda ham yumshoq bo‘lsa shogird uni mensimay qo‘yadi va u beradigan bilimdansovub ham qoladi. U o‘qituvchiga bolalarning fe’l atvoriga qarab tarbiya jarayonida "qattiq" yoki "yumshoq" usullardan foydalanishni maslaxat beradi. Uning fikricha:

1. Tarbiyalanuvchilar o‘qish-o‘rganishga moyillik bildirsalar, ularga ta’lim tarbiya jarayonida yumshoq usul qo‘llaniladi.
2. Tarbiyalanuvchilar o‘zboshimcha itoatsiz bo‘lsalar, qattiqroq usullar qo‘llaniladi.

Musiqa tarbiyasida yangi metod va vositalar izlash “ustoz-shogird” faoliyatida juda muhimdir. Zero, musiqa darsi boshqa darslardan o‘zining badiyligi, qiziqarliligi va

bolalarga ko‘prok ijodiy zavk, emotsiyallar tuyg‘ular va obrazli kechinmalar uyg‘otishi bilan birga, ustoz-shogird munosabatlarda ham samarali natijalarga erishishni ta’minlaydi. Shuning uchun musiqa darsi eng avvalo, tarbiya darsidir.

Musiqa darslari kuyidagi spesifik xususiyatlari bilan boshqa darslardan farq qiladi:

U musiqa nazariyasi va ijrochiligiga doir turli faoliyatlardan: vokal-xor mashg‘ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, bolalar cholg‘u asbobida chalish, ritmik xarakatlar bajarish elementlaridan iboratdir.

Musiqa boshka sana’t turlaridan o‘zining ifoda vositalari, ya’ni «tili» bilan farq kiladi. Agar badiiy abdiyot so‘z bilan tasviriy san’at ranglar bilan, raqs san’ati harakat bilan ifodalansa, musiqa esa mantikiy tovushlarda vujudga kelgan oxang vositasida ifodalanadi. Yuqoridagi san’at turlarini ko‘rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani fakatgina diqqat bilan tinglabgina ifoda etamiz. Shuning uchun kuzi ojiz kishilardan xam yetuk musiqachilar yetishib chikkan.

Xulosa shuki:

1) Musiqa anik vakt ulchovi bilan boglangan san’atdir. Shuning uchun, ijob etilayotgan musiqa tempiga sozlanib, uning har bir elementini diqqat bilan tinglamasak, asarni mukammal idrok etolmaymiz. Mumtoz asarni qaytaqayta tinglaganda uning yangi-yangi badiiy qirralarini xis etamiz.

2) Musiqa bolalarga aktiv emotsiyallar ko‘rsatadi, quvontiradi xamda ijodiy kechinmalar uyg‘otadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darsidan bolalar xordiq chiqarib, badiiy ozuqa oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Inoyatova M. Ta’limiy qadriyatlarni aniqlash va pedagogik amaliyotga tatbiq etish. Toshkent: “Sharq”, 2010. - 155b.
- 2) Al-Multaqot: Nosiriddin Abulqosim Muhammad ibn Yusuf alHusayniy as-Samarqandiy(vaf. 556/1161 y.)ning fiqhiy asari. (al-Favaid albahiya. - B. 219; Kashf az-zunun. - J. 1. - B. 380,565, - J. 2. - B.1580; al-A‘lom. - J. 7. - B. 149.
- 3) Кадирова, З. З. (2019). Психолого-педагогические проблемы изучения понимания учебно-воспитательных ситуаций учителем. Профессионализм педагога: компетентностный подход в образовании, 1(1), 6-11.
- 4) Kadirova, Z. Z. (2022). Alisher Navoiyning nasriy asarlarida perifrazalar. *Monografiya*, 1(1), 120.
- 5) Leylo, M., & Pavlovna, I. Y. (2023). Motive of children's suffering in the story z. prilepin “white square”. *Scientific approach to the modern education system*, 1(10), 77-80.
- 6) Yuliya, I. (2023). The place of Shamshad Abdullayev and the “Fergana school of poetry” in modern literature. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 521-523.

- 7) Isayeva, Y. (2023). Relevance of studying national character. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 4(05), 95-100.
- 8) Astanova, G. A. Analysis of the image of wise and entrepreneurial women in Shahrizoda stories. *theoretical & applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (9), 533-537.
- 9) Aminovna, A. G. (2020). Interpretation of the image of the hero woman in the stories of Shahrizoda. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(6), 14365-14373.
- 10) Dusnazarova, M. I. (2022). Legal Regulation of Marriage-Wedding Traditions in Modern Uzbekistan. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities*, 1(11), 23-29.
- 11) Elamanovna, D. M. (2021, March). Works and environmental education. *Archive of Conferences*, 17(1), 79-80.